

MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

R.R.Mirzaaxmedov*Agrobiznes va investitsion faoliyat magistratura mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini eksportga yetkazib berish hajmlarini ko'paytirish va turlarini kengaytirish, fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishning hozirgi holatini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *eksport, oziq-ovqat, meva-sabzavot, mahsulot, bozor.*

Abstract: *Now In our country growing of agricultural products and incleasement of export's potential, enlargement of amount and expanding types of export deliveries which have dimand in world market agricultural products as grapes, fruits, melons, study present state of farm production are actual task.*

Key words: *export, food, fruit and vegetables, product, market.*

Аннотация: *Нашей стране выращивание сельскохозяйственных продуктов и увеличение экспортного потенциала, увеличение объемов и расширение типов экспортных поставок имеющих спрос в мировом рынке фруктов, винограда и бахчевых культур, изучение нынешнего состояния производство продуктов в фермах считается одной из актуальных задач.*

Ключевые слова: *экспорт, питание, фрукты и овощи, продукт, рынок.*

Dunyo mamlakatlarida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha savdo bozorining so'nggi 10 yil ichida o'rtacha 40 foizga o'sib, 55 million tonnadan 73 million tonnagacha oshdi. Eksport hajmining o'sishi dunyo miqyosida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish o'sishiga mos keladi. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, o'z navbatida, dunyo aholisiga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Ayni paytda dunyoda har bir inson uchun taxminan 120 kg meva-sabzavot mahsuloti to'g'ri keladi. Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2030 yilga kelib dunyo aholisi sakkiz milliarddan oshishini bashorat qildi. Shuning uchun oziq-ovqatga mahsulotlariga bo'lgan talab keskin oshadi. FAOning «Qishloq xo'jaligi: 2015/30 sari» hisobotida ta'kidlanishicha, kelgusi o'ttiz yil ichida dunyo aholisini meva-sabzavotlarga bo'lgan talabini qondirish bo'yicha ajoyib yutuqlarga erishiladi. Dunyo olimlarining tahlil natijalariga ko'ra, 2030 yilda meva-sabzavot yetishtirish hozirgi kundagiga nisbatan 70 foizga yuqori bo'lishi rejalashtirilgan[1]. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, ularni eksport va import qilishda AQSh davlati dunyoda yetakchilik qilib kelmoqda. Jahon meva-sabzavotlari savdosining 18 foizi AQSh davlati hissasiga to'g'ri keladi. Yevropada esa Germaniya, Gollandiya, Fransiya va Ispaniya davlatlari meva-sabzavot mahsulotlarini eksport va import qilishda yetakchilik qilib keladi. So'nggi yillarda respublikamizda qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yildi, klasterlarga ajratilgan

qishloq xo‘jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo‘yicha paxta-to‘qimachilikda 67 foizni, chorvachilikda 8 foizni, meva-sabzavotchilikda 7,5 foizni tashkil etmoqda[2].

Qishloq xo‘jaligining barqaror sur‘atlar bilan rivojlanib borishi aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa xomashyo bilan ta‘minlash orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda respublikamizning eksport salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, sishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta‘minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish, agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalar sonini ko‘paytirish. Urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish, nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish, aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish kabi maqsadlar belgilab olingan[3]. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda albatta, soha investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini o‘rganish, investorlarga qulaylik yaratish, investitsiya jozibardorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim hisoblanadi.

Shuningdek, meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga hukumat darajasida e‘tibor qaratilib kelinmoqda hamda bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, bog‘, tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur. Shu boisdan, mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 oktabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3978-son qarori, 2019 yil 11 dekabrda “Meva va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-son qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida sifatli amalga oshirilishi meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirishga doir loyihalarni amalga oshirish uchun ekin maydonlari sezilarli ravishda kengaytirildi, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha quvvatlar ishga tushirildi, moliyaviy resurslar, jumladan, xalqaro moliya institutlari mablag'lari faol ravishda jalb etilmoqda.

Bozordagi tez o'zgaruvchi talablarga moslashish imkoniyatlarimiz ham keskin ortib ketdi. Chunki butun meva-sabzavot mahsulotlarini bozor talabiga juda tez moslasha oladigan xususiy mulk asosidagi dehqon va fermer xo'jaliklari yetishtirmoqda. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- respublikamiz sharoitida meva-sabzavot, uzum, poliz mahsulotlarini ichki bozor talabidan orttirgan holda eksport salohiyatidan keng foydalanish;

- har bir hududning asrlar davomida takomillashib kelgan ixtisoslashuv yo'nalishi, dehqonchilikda shakllangan boy tajribalar hamda tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib ekinlarning turli navlari va turlarini ilmiy asoslangan holda joylashtirishni moddiy rag'batlantirishni iqtisodiy mexanizmlarini kengroq joriy etish;

- respublikamiz hududlarida paxta va g'alla yetishtirishga alohida ahamiyat beriladi. Ayni paytda g'allani yig'ishtirib olingandan keyin takroriy ekin sifatida sabzavot, yem-xashak ekinlarini ekish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish lozim.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish, mahsulot yetishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash orqali tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Mamlakat iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda iqtisodiy rivojlangan davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirishning ilg'or tajribalarini joriy etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda bu borada bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yanada ko'paytirish imkoniyatlarini yaratish uchun fermer va dehqon xo'jaliklarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- oziq-ovqat ekinlarini ekish uchun ajratilib beriladigan yer uchastkalarini kengaytirish;

- har bir tumanda ekinlarni joylashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

- har bir sotix ekin maydoni ariq va uvat chetlaridagi yerlardan samarali foydalanish;

- bog' va uzumzor qator orasiga qo'shimcha ekinlarni ekish;

Fermer va dehqon xo'jaliklarida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagilardir:

- respublika darajasida chorvachilik (qoramol, qo'y va parranda) asalarichilik, baliqchilik sohalarini qo'shimcha tashkil qilish, issiqxonalar, omborxonalar qurilishi va boshqa sohalar bo'yicha talabni ishlab chiqish;

- har bir soha bo'yicha talab etiladigan sarf-xarajatlar, jumladan:

- servis xizmati, urug', Yo.M.M., mineral o'g'it, mevali ko'chatlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa resurslar bo'yicha talabni o'rganish;

- mazkur resurslar bilan ta'minlaydigan korxonalar va tashkilotlar bilan oldindan shartnomalar tuzilishini amalga oshirish;

- resurslar ta‘minoti ustidan doimiy monitoring olib borilishini yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga o‘z vaqtida amaliy yordam ko‘rsatish.

Meva-sabzavot mahsulotlari dunyoning 70 dan ortiq davlatlariga eksport qilinmoqda. Jumladan, Italiya va Ispaniyaga konservalangan kapers (kovul), Livanga grek yong‘oqlari, Vetnamga mayiz, Belgiyaga quritilgan sabzavotlar, Shveysariyaga uzum va qovun, Gollandiyaga turshak, Isroilga mayiz, Chexiyaga quritilgan mevalar va mayiz jo‘natildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, sanoat usulida chuqur qayta ishlash va ichki iste‘moldan ortiq qismini jahon agrar va oziq-ovqat bozorlarida manfaatli narxlarda eksport qilish masalalariga katta e‘tibor qaratilayotgani, mahsulot yetishtirish hajmini keskin ko‘paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ko‘rilayotgani, o‘z navbatida, meva-sabzavot va uni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar eksportini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Buborada mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida kelgusida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan respublikada o‘zini-o‘zi ta‘minlash, shuningdek, tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar eksportini sezilarli darajada oshirishni taqozo etadi. Respublikamizda xalqaro meva-sabzavot yarmarkalarini tez-tez tashkil etish. Bu o‘z navbatida, xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etish, jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorining yo‘nalishlari va rivojlanish istiqbollari tahlil etish, O‘zbekistonning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.fao.org/3/y4358e/y4358e04.htm>.
2. <https://stat.uz/uz/>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.